# TOSHKENT VILOYATI OQQO'RG'ON TUMANI HOKIMI
# Q A R O R I

2023 - yil 29 - avgust 228-10-133-Q/23 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

## Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 22-avgustdagi 406-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyulda “Ma’muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 111-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuniy 6,25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi 111-sonli farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilanganligini;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tizimidagi muassasalar qayta tashkil etilganligi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tizimidagi muassasalar qayta tashkil etish dasturi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganligi;

Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasi Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komisssiyasi etib qayta nomlanganligi;

Hukimat komissiyasiga investitsiya loyhalarini joylashtirish uchun

sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va o‘rmon fondi yerlarining toifasini o‘zgartirish, shuningdek master-rejalari tasdiqlangan hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyektlariga yer maydonlarini bozor qiymatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish yoki elektron onlayn-auksionga chiqarish bo‘yicha qaror qabul qilish berilganligi;

3. Tuman investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar tashkil etilganligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman hududiy komissiyasiyaga:

Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasiga investitsiya loyihalarini joylashtirish uchun tasdiqlangan reglamentga muvofiq sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va o‘rmon fondi yerlarining toifasini o‘zgartirish, shuningdek master-rejalar tasdiqlangan hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tadbirkorlik subyektlariga yer maydonlarini bozor qiymatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish yoki elektron onlayn-auksionga chiqarish bo‘yicha takliflarni kiritib borish vazifasi yuklansin.

5. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul shaxsiy javobgar etib tuman hukimi o‘rinbosari S.To‘xtayev belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi v.b** **T.Bobolov**

Oqqo‘rg‘on tuman hokimining
2023-yil 29-avgustdagi
228-10-133-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo‘yicha Hududiy komissiyasining**

**TARKIBI**

| **T/r** | F.I.SH. | Lavozimi |
|---|---|---|
| **1** | S.To‘xtayev | Tuman hokimining investitsiyalar, sanoat va savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *Hududiy komissiyaning raisi* |
| **2** | | Tuman prokuraturasi birinchi o‘rinbosari |
| **3** | J.To‘rayev | Tuman investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari |
| **4** | Z.Janbayev | Tuman iqtisodiyod va moliya bo‘limi boshlig‘i |
| **5** | Z.Normatov | Tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘lim boshlig‘i |
| **6** | Q.Arslonov | Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i |
| **7** | B.Shomirzayev | Tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i |
| **8** | K.Mirzamamedov | Elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i |
| **9** | Sh.Baymakov | “Gaz ta’minoti” filiali boshlig‘i |
| **10** | Sh.Begimqulov | Tuman investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi mas’ul hodimi *komissiya kotibi* |